



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шоқир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Boxodirov Ixtiyor TURKISTON HARBIY OKRUGINING ILI O‘LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGINI O‘RNATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI.....	5
2. Bo‘tayev Jonibek XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TIBBIY XIZMAT HOLATI.....	10
3. Djumamurotov G‘ulom XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING OROL BO‘YIGA KO‘CHIB JOYLASHISHI.....	16
4. Ergasheva Xusnida NEFT SANOATINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH.....	27
5. Кобзева О.П. СКАНДИНАВСКИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛИ ШЕЛКОВОГО ПУТИ.....	34
6. Rahmatov Muhridin TATAR ZIYOLILARINING TURKISTON TA‘LIM TIZIMINI YO‘LGA QO‘YILISHIDAGI ISHTIROKI VA UNING NATIJALARI.....	40
7. Ruzikulova Maftunaxon MARKAZIY FARG‘ONA SUV XO‘JALIGINING MOLIYAVIY TA‘MINOTI VA UNDAGI MUAMMOLAR (1950-1991-yillar).....	46
8. Саттаров Акрам XIX АСР ЎРТАЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТ.....	52
9. Tishabayev Alisher O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MALAKALI SPORTCHI MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2019-yillar).....	58
10. Toliboyeva N.O. O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY SOHANING YUKSALISHI.....	66
11. Хайдаров Муродилла ФРЕДЕРИК СТАРР. МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ.....	71
12. Baxtiyor Yuldashev, Xusnida Ergasheva SOVET DAVLATI HUKMRONLIGI YILLARIDA O‘LKADA NEFT SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR.....	81



Muhriddin Azimovich Rahmatov,
tayanch doktorant,
Mirzo Ulugʻbek nomidagi
Oʻzbekiston Milliy universiteti

TATAR ZIYOLILARINING TURKISTON TA'LIM TIZIMINI YO'LGA QO'YILISHIDAGI ISHTIROKI VA UNING NATIJALARI

For citation: Muhriddin A. Rahmatov. The Participation of Tatar Intellectuals in the Organization of the Educational System of Turkestan and Its Results. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 4, pp.40-45

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15380666>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston oʻlkasi ijtimoiy-madaniy hayotidagi tarixiy sharoitlarda yuz bergan oʻzgarishlar va bu oʻzgarishlarga mahalliy aholiga yordam bergan tatar ziyolilarining faoliyati haqida soʻz yuritiladi. Xususan, Turkiston oʻlkasida yangi usul maktablarining tashkil etilishi va oʻlka nashriyot sohasining rivojlanishida bevosita ishtirok etgan tatar oʻqituvchi va ziyolilari faoliyati yoritilgan.

Turkistonda yangi usul maktablar tizimi paydo boʻlishida Qozondan kelgan tatar oʻqituvchilarning ham amaliy, ham maʼnaviy koʻmaklari beqiyos boʻlgan.

Kalit soʻzlar: Turkiston, Qozon, Yangi usul tizimi, pedagog, taʼlim, adabiyot, Mihbosma, Vaqt, Taraqqiy, madrasa.

Мухриддин Азимович Рахматов,
базовый докторант,
Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека

УЧАСТИЕ ТАТАРСКИХ ИНТЕЛЛИГЕНТОВ В ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ТУРКИСТАНА И ЕЁ РЕЗУЛЬТАТЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются изменения, произошедшие в социально-культурной жизни Туркестанского края в конце XIX - начале XX века на фоне исторических условий, а также деятельность татарских интеллигентов, оказавших непосредственную помощь местному населению в этих изменениях. В частности, подробно освещается участие татарских учителей и интеллигентов в создании новых школ в Туркестане и развитии издательской деятельности в регионе.

В становлении системы новометодных школ в Туркестане неоценимую практическую и духовную помощь оказали татарские учителя, прибывшие из Казани.

Ключевые слова: Туркестан, Казань, система нового образования, педагог, образование, литература, Михбосма, Вақт, Таракки, медресе

Muhriddin A. Rahmatov,
basic doctoral student of
National University
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

THE PARTICIPATION OF TATAR INTELLECTUALS IN THE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL SYSTEM OF TURKESTAN AND ITS RESULTS

ABSTRACT

In this article the changes that occurred in the socio-cultural life of the Turkestan region in the late 19th – early 20th centuries against the backdrop of historical conditions, as well as the activities of Tatar intellectuals who directly assisted the local population in these changes were examined. In particular, the participation of Tatar teachers and intellectuals in the creation of new schools in Turkestan and the development of publishing activities in the region is covered in detail.

Tatar teachers who came from Kazan provided invaluable practical and spiritual support in the development of the new-method school system in Turkestan.

Index Terms: Turkestan, Kazan, new education system, pedagogue, education, literature, Mihbosma, Vaqt, Taraqqiy, Medrese

1. Kirish:

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati mahalliy xalqlarning hayotiga ta'sir qilgan, ular o'z mustaqilliklarini yo'qotgan va yangi ta'lim tizimiga ehtiyoj sezganlar. Jadid harakati, ayniqsa, tatar va boshqird ziyolilari tomonidan o'zlarining yangi ta'lim usullarini ishlab chiqish va amalga oshirishni maqsad qilgan. Ular o'zlarining ta'lim tizimini, ya'ni "yangi usul maktablari"ni yaratish orqali mahalliy aholiga islohotlar kiritishga harakat qilgan. Bu usul eski maktab tizimidan tubdan farq qilgan bo'lib, o'zining samaradorligi va muvaffaqiyatlari bilan mahalliy aholining e'tiborini jalb qilgan.

2. Metodologiya:

Turkiston o'lkasi haqida ma'lumot beradigan o'sha davrdagi gazeta, jurnallarda berilgan maqollar, qo'lyozma manbalar, xotira kitoblari va tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni o'rganish va tahlil etishda tarix fanining zamonaviy kontseptual-metodologik yondoshuvlari hisoblangan mavzuga doir xotira kitoblari va ilmiy ishlarda keltirilgan ma'lumotlarning qiyosiy tahlilida, tarixiylik, qiyosiy tarixiy tahlil uslublaridan foydalanilgan.

3. Asosiy qism:

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasi bosib olingach chor hukumatining tartib – qoidalarini o'ranatish va mahalliy aholini ong ostida to'la bo'ysundirish vazifalari qo'yilgan. Bu vazifalar, avvalambor, siyosiy, iqtisodiy madaniy sohalardan boshlandi. Siyosiy jihatdan tup aholini davlat boshqaruvi lavozimlariga yo'latmaslik uchun mustamlakachi davlat tarafidan bir nechta boshqaruv tizimi bo'yicha qonun loyihlari ishlab chiqildi. Turkiston viloyatini boshqarish uchun 1865-yil 6-avgustda "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom" qabul qilinib, unga muvofiq harbiy va fuqarolik hokimiyati harbiy gubernator qo'lida bo'limlarga bo'linib, ularni bo'lim boshliqlari boshqargan[1]. Iqtisodiy sohada mahalliy aholini qaram qilish uchun mahalliy ishlab chiqarishni kasod qiladilar. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda o'tkazgan mustamlaka siyosati, ayniqsa, iqtisodga katta ta'sir ko'rsatgan. Mintaqa, jumladan, Turkiston rivojlanayotgan Rossiya kapitalizmi iqtisodiy tizimiga jalb etilgach, u chinakam mustamlakaga aylandi va o'lkaning an'anaviy turmush tarzi yemirila boshlandi. Bu jarayon mamlakat xo'jalik yuritishining milliy xususiyatlariga, uning an'anaviy tarkibiga qattiq ta'sir ko'rsatgan[2]. Rossiya sanoat palatasiga keng imkoniyatlar berilib juda ko'p miqdorda arzon sanoat mollari o'lka hududiga kiritildi. Bu o'z navbatida uy sharoitida hunarmandchilikning turli sohasida faoliyat olib borgan hunarmandlarni

mahsulotiga bo'lgan ehtiyojni kamayishiga sabab bo'ladi. Chunki, Rossiya sanoat tovorlari mahalliy manufaktura mahsulotlaridan arzon va sifatli edi.

Rossiya humron doiralari madaniyat sohasida tub aholi bilan juda jiddiy tarzda ish olib bordilar. Bu guruh aholi ko'proq rus madaniyati, noshirligi va teatri bilan tanishtirilsa, mahalliy aholi o'rtasida kelajakda ruslarga moyil qatlam shakillanishiga ishonishgan. O'z navbatida bu narsa mustamlaka tartibotini Turkiston o'lkasida ko'proq hukum surishiga asoslardan biri sifatida qaralgan. Rus ma'muriyati maorif sohasiga alohida e'tibor berib tajovuskor siyosat qo'llaydi. Shu maqsadda 1876-yil o'lkada rus progimnaziyalari (to'liqsiz gimnaziyalar) ochiladi. 1903-yildan o'lkada xotin-qizlar uchun ham rus-tuzem maktablari va gimnaziyalari tashkil etildi. Mahalliy xotin-qizlarni rus-tuzem maktablari va gimnaziyalarga jalb etish maqsadida mazkur bilim dargohlarga muallimlar sifatida rus millatiga mansub ayollar bilan bir qatorda tatar va boshqird ayollari ham taklif etildi. Mustamlaka hukumati tomonidan tatar-boshqird ayollarini maorif tizimiga jalb etishning asosiy maqsadi, ular vositasida imperiya manfaatlarini uchun xizmat qiladigan fuqarolarni tayyorlash edi[3]. Tatar muallimlarini Turkiston o'lkasiga keltirish chuqur o'ylab chiqilgan reja asosida amalga oshirilgan. Birinchidan, Tatarlar ko'pchiligi islom diniga e'tiqot qilishi bu eng asosiy faktirlardan bo'lgan. Ikkinchidan, Tatarlar ham turkiylardan bo'lgani tili va madaniyati yaqinligi hisobga olingan. Rossiya hukumron doiralari tatar millatini ko'p yillar davomida o'z davlatlari tarkibida bo'lgan xalq sifatida ko'rib ularga katta ishonch bildiradilar. Ularga Turkiston o'lkasidagi ishonchli vakillari deb qarashgan. Dastlabki davrlarda tatarlar mustamlakachi hukumat bergan topshiriqlarni so'zsiz bajarganlar. Keyinchalik mahalliy aholi bilan yaqinlashuv ularni fikrlarini o'zgartirib borgan.

Turkistonda tatarlar faoliyatining kengayib borishi Rossiya imperiyasi ma'murlarini jiddiy xavotirga soldi. Shu boisdan ham Imperiya Vazirlar Kengashi huzuridagi ijroya qo'mita qoshida musulmon maktablari ustidan maxsus nazorat komissiyasi tuzildi. Mazkur komissiya a'zolarining musulmon maktablari yuzasidan nuqtayi nazarlari "Turkistanskiy vedomosti" gazetasida bosilgan "Turkiston o'lkasida g'ayri ruslarning ta'limini yo'lga qo'yish" nomli maqolada o'z ifodasini topgan edi. Unda: "Cho'qintirilgan [tatar,boshqird,chuvash]lar va islom diniga e'tiqod qiluvchi mahalliy millat maktablarida o'qish ishlariga ularning ona tillaridan asta-sekinlik bilan rus alifbosida bosilgan kitoblar kiritilib, mazkur xalqlarni rus tilida o'qishga ko'niktirib borish lozim"[4], deya qayd etilgan. Shu bilan qatorda maqolada tatarlarning keyingi paytlardagi faoliyati mustamlaka hukumatiga qarshi ruhda bo'lib, ularni mahalliy millatni o'z ta'siriga olishidan himoyalash lozimligi ta'kidlab o'tilgan.

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati imperiya hududida istiqomat qilayotgan turk-musulmon dunyosi kelajagiga jiddiy zarar etkazishini anglab, bunday zulm botqoqidan faqatgina ma'rifat orqali kurashish va ozodlikka erishishni anglagan shaxs, jadidchilik g'oyasi asoschisi I.Gasprinskiy edi. U imperiya mustamlaka siyosati ostida ezilayotgan millionlab turkiylar taqdiriga befarq qaray olmadi. I.Gasprinskiy mazkur masalalarni hal etish yo'lida dastlab maorif tizimini isloh etish g'oyasini ishlab chiqdi. U doimo millat "o'z tili, o'z milliy-an'anaviy o'quv usul – vositalari asosida, zarur bo'lsa, ularni isloh qilgan holda ma'rifatni tiklamog'i lozim"[5],– deb qaragan. I.Gasprinskiy o'z asarlarida Turkistonning boy va shavkatli tarixiga katta hurmatda bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda I.Gasprinskiy 1893 va 1908-yillardagi safari chog'ida yozgan asarlarida Turkiston hayotining notekis, qoloq jihatlarini totli uslub bilan tanqid etdi[6]. U Turkistonning bir qancha shaharlarida bo'lib mahalliy turklarning mehmondorchiliklarini qattiq tanqid qiladi. Eng achinarli holati bu mehmondorchilik ilm ahillarning qalblariga kirib qolganini achinish bilan bayon qiladi. Dasturxon atrofida jamlagan olimlar ilmda birlashmasligidan norozi bo'ladi. U Turkiston ziyolilari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga harakat qilgan. Turkiston ma'rifatparvarlari ham uning o'gitlari va ko'rsatmalariga amal qilgan holda o'zlarining yo'l boshchilari sifatida bilganlar. Xususan, Turkiston jadidlaridan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy I. Gasprinskiyni o'ziga ustoz deb bilgan edi[7].

Bundan ko'rishimiz mumkinki, Rossiya imperiyasi quroli sifatida o'lkaga olib kelingan tatar musulmonlari tub aholi bilan yaqin do'stona munosabatlarga kirib borgan. Turkistonda rus tuzem maktablari bilan bir qatorda yangi usul maktablari ham ko'payib borgan. Bu maktablar o'lkaning

ziyolilar qatlami tomonidan ochilgan. Yangi usul maktablari tarmog'ini ko'payishi darsliklar va o'qituvchilarga bo'lgan talabni oshiradi. Darsliklar asosan Qozon universitetining bosmaxonasida nashr etilgan. Mahalliy ziyolilar tomonidan tatar o'qituvchi-murabbiylarni o'lkaga taklif etish yanada kuchayadi.

XIX asrning o'rtalarida Buxoro, Xiva va Samarqanddagi diniy madrasalarga Qozon, Ufa, Orenburgdan tatar talabalari o'qishga kelgan bo'lsa, keyinchalik bu jarayon o'zgaradi. Yangi usul tizimini chuqurroq o'rganish va uni ta'limini olish uchun Turkiston talabalari Qozon, Ufa, Orenburg shaharlariga o'qishga borganlar.

Bu davrda G.Kursavi, Sh.Mardjani kabi shaxslar Rossiyada musulmon madrasalaridagi birinchi islohotchilarga aylanishgan. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yangi avlod tatar olimlari, yangi usulli maktablarning o'qituvchilari, madaniyat, matbuot, adabiyot va teatr sohasidagi faoliyatlarni olib borgan insonlar yetishib chiqadi. V.V.Bartoldning ta'kidlashicha, bu insonlar o'zlarining turkistonlik dindoshlari orasida ma'rifatparvarlar sifatida namoyon bo'lishdi[8]. Jadidlar ko'plab yangi usul maktablarni tashkil etdilar, ularda mahalliy va tatar bolalari tahsil olishadi. Tatarlar, shuningdek, mahalliy davriy matbuotni yo'lga qo'yish uchun katta ish olib bordilar. Toshkent va Xivadagi birinchi bosmaxonalar "Mihbosma" nomi bilan atalib, ular Qozondan Shahgirey Bikkulov tomonidan olib kelingan. Ko'plab bosmaxonalarda tatarlar dastgohchilar va kitob bosuvchilar sifatida ishlagan. Ular birinchi jamoat o'qish xonalarini ham tashkil etganlar. O'zbek ziyolilarining bir qismi Qozon, Ufa, Orenburgdagi "Muhammadiya", "Galiya", "Xusayniya" kabi madrasalarda o'qigan.

Xivada jadid g'oyalari tarqalishi va yangi jadid maktablar ochilishi, boshqa Turkiston hududlaridagi kabi, muhim bo'lgan. Bu jarayonda tatar ziyolilari katta rol o'ynadi. 1905-yilda Nijniy Novgorodda bo'lib o'tgan musulmonlar qurultoyi yakunlangach, Halisjon Borudi boshchiligida ular Turkiston, Buxoro, Xorazm bilan aloqalar o'rnatib, o'z pedagoglarini yuborishga boshladilar. Dastavval, Xiva xoni va amaldorlarining bolalarini o'qitish uchun Xorazmga Tavfiq Bikkulin va Yusuf Ahmadovni yuboriladi. Shu davrda Xivada sakkizta jadid maktabi faoliyat ko'rsatib turgan.

1904-yil 10-noyabrda Urganchda birinchi yangi usuli jadid maktab ochiladi, bu maktabni Muhammad Rahimxon Feruzning buyrug'i bilan tashkil etilgan edi. Maktabda o'qituvchilikni Turkiyadan kelgan Husayn Kushayev olib bordi. Maktabda o'quvchilar soni qisqa vaqt ichida 55 nafarga yetadi. Husayn Kushayevning tashabbusi bilan, ilg'or pedagoglarning yordami va oqsoqqollarning roziligi bilan 1906-1907-o'quv yilida Urganchda qizlarni o'qitishga mo'ljallangan maktab ochildi. Urganchga tashrif buyurgan Muhammad Rahimxon Feruz, maktabning faoliyati bilan tanishdi. U Husayn Kushayevga kiyim sovg'a qilib, davlat mablag'laridan moliyaviy yordam ko'rsatdi. Asfandiyorxon taxtga Islomxo'ja tarafdorlari yordamida o'tirgan. Islomxo'janing Rossiya doiralari bilan yaqin aloqalarini inobatga olib, xon islohotlar to'g'risida qaror chiqardi. Islomxo'jaga mamlakatni boshqarish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Islomxo'ja hokimlarga 11 punktdan iborat yo'riqnomalar ishlab chiqdi [9]. Ushbu dastur tezda hayotga tadbiq etila boshlandi. Islomxo'ja taklifiga binoan, xonlik hududida Kabir Abdurashidov, David Bakirov, Muxtar Bakirov kabi o'qituvchilar, ko'prik muhandislari, pochta-telekommunikatsiya xodimlari ishga kirishdilar. 1913-yilda Xivaga A.F. Anisimov boshchiligida shifokorlar kelishdi. Ushbu jarayon jadidlar harakatiga katta ta'sir ko'rsatdi.

XIX – XX asrning boshlarida Turkistondagi ma'rifatparvarlik va islohotchilik harakati davrida tatar ma'rifatparvarlari juda katta ijobiy rol o'ynadilar. O'zbekistondagi jadid harakati tarixida, M.Behbudiy, S.Ayni, A.Avloniy, A.Fitrat kabi shaxslar bilan birga Buxoroda Nizamitdin Sabitov, Farg'onada Shakir Muxtari, Namanganda Abdullo Tukmullin, Xivada Muxtar Bakir, Toshkentda Abdullo Begi Mustaqayev va Bulat Saliyev kabi tatar ma'rifatparvarlarining nomlari ham zikr qilinadi. Tatar ziyolilarining O'rta Osiyo, xususan, Turkistondagi ta'lim, adabiyot, tasviriy san'at va teatr rivojiga bo'lgan faoliyati samarali bo'lgan[10].

O'zbekiston Respublikasida har yili 27-iyun kuni matbuot kuni sifatida nishonlanadi, chunki shu kuni 1906-yil 14-iyunda birinchi o'zbek gazetasi "Taraqqiyy" nashrga chiqdi. Ushbu gazetani taniqli tatar jamoat va siyosiy arbobi Ismoil Obidov boshqargan. 1913-yilga kelib Turkiston

viloyatida Orenburgda nashr etilayotgan «Vaqt» gazetasi o'quvchilari soni keskin oshdi. Buning natijasida, tatar ziyolilari Turkistonda gazeta va jurnal chiqarishni maqsad qilishadi, lekin bu rejalar chor Rossiya hukumati to'sig'iga uchraydi. Rossiyadagi Fevral inqilobidan so'ng, 1917-yilda Turkistonlik vatanparvar jadidlar va tatar taraqqiyparvarlarining matbuot sohasidagi hamkorligi yangi bosqichga otdi. Bu ishda jonboslik qilganlar orasida Ahmad-Zaki Validi, Bulat Saliyev, Kabir Bakir, Muxtar Bakir kabi kishilar faol ishtirok etdilar. Ular faqat o'z manfaatini uchungina emas, balki butun turk-musulmon olamining kelajagi uchun ham kurashishdi. Turkistondagi siyosiy jarayonda faol ishtirok etgan tatarlar quyidagi gazetalarni nashr etishdi:

1. «Ulug' Turkiston» gazetasi, Kabir Bakirov va S. Abduxattorov muharrirligida 1917-yil 25-apreldan 1918-yil 30-noyabrgacha Toshkentda tatar tilida chop etilgan. Gazeta Turkistondagi tatarlar markaziy nashri hisoblangan va Toshkentdagi tatarlar ittifoqining nashri bo'lgan.

2. «El bayrog'i» gazetasi, 1917-yil 8-sentabrdan 1918-yil boshiga qadar Qo'qonda o'zbek tilida, Bulat Saliyev va Ashurali Zahiri muharrirligida, Turkiston Avtonomiya Hukumati nashri sifatida chop etilgan.

3. «Farg'ona sahifasi» gazetasi, 1917-yil 15-martdan Namanganda taniqli tatar ma'rifatchisi Xusayin Makayev tomonidan o'zbek tilida chiqarilgan. Gazetadan jami 19 ta soni chiqdi.

4. «Kengash» gazetasi, Toshkentda 1917-yil 25-iyundan oktabrga qadar Ahmat-Zaki Validi va Munavvar Qori muharrirligida, Turkiston Markaziy Musulmon Kengashining nashri sifatida chiqarilgan.

5. «Sho'royi Islom» gazetasi (Toshkent), A. Battal (Biktemirov) muharrirligida, 1917-yil 16-maydan iyungacha o'zbek tilida «Sho'royi Islomiy» tashkilotining nashri sifatida chiqarilgan.

6. «Chayan» jurnali, 1917-yil iyundan 1918-yil avgustigacha, Toshkentda, Halifa Tulakov va Ibrohim Tohiri muharrirligida, Turkistonning milliy ishchi bo'limining nashri sifatida tatar tilida chiqarilgan.

7. «Cho'l chayoni» jurnali, 1918–1919-yillarda Toshkentda, Ibrohim Tohiri muharrirligida tatar tilida chiqarilgan.

8. «Xalq dorulfununi» jurnali, 1918-yil 31-maydan boshlab, Toshkentda, Muxtor Bakir (Bakirov) muharrirligida, Turkiston Xalq Universiteti nashri sifatida chiqarilgan[11].

4. Xulosa:

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Turkiston o'lkasida ta'lim tizimi va noshirlik ishlarini jadid taraqqiyparvarlari tarifidan XIX asr oxir – XX asr boshlarida rivojlantirishga qattiq harakat qilindi. O'lkada bu borada qilingan ishlar o'z samarasini bermay qolmadi. Aholini bilimli va savodli qilishga qaratilgan harakatda mahalliy ziyolilar qatorida tatar ma'rifatparvarlarini ham xizmatlari beqiyos bo'ldi. Bu turkiy xalqlarning dini, madaniyati va tili yaqinligi do'stona aloqalar uchun juda muhim ro'l o'ynadi.

Иқтибослар/Сноски/References

1. Sodiqov H., Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011. – b. 122 (Sodiqov.H., Jo'rayev. N. History of Uzbekistan. – Tashkent: Sharq, 2011. – p. 122.)
2. Турсунов Р.Н. XX аср бошида Туркистондаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларга жадидларнинг қарашлари: Монография. – Тошкент: “Firdavs-Shoh nashriyoti”. 2024. – 37 б. (R.N. Tursunov. The Jadids' Views on the Socio-Economic Processes in Turkestan at the Beginning of the 20th Century: Monograph. – Tashkent: “Firdavs-Shoh Publishing House”, 2024. – p. 37.)
3. Насретдинова Д.М. Туркистоннинг маданий ҳаётида татар-бошқирд аёлларининг тутган ўрни (XIX аср охири - XX асрнинг биринчи чораги). Тарих фан. ном. дисс... - Тошкент, 2011. – б. .43. (Nasretdinova.D.M. The Role of Tatar-Bashkir Women in the Cultural Life of Turkestan (Late 19th Century – First Quarter of the 20th Century). PhD Dissertation in History. – Tashkent, 2011. – p. 43.)

4. Насретдинова Д.М. Туркистоннинг маданий ҳаётида татар-бошқирд аёлларининг тутган ўрни (XIX аср охири - XX асрнинг биринчи чораги). Тарих фан. ном. дисс... - Тошкент, 2011. – б. .39. (Nasretdinova.D.M. The Role of Tatar-Bashkir Women in the Cultural Life of Turkestan (Late 19th Century – First Quarter of the 20th Century). PhD Dissertation in History. – Tashkent, 2011. – p. 39.)
5. Qosimov B. Milliy uygʻonish. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2002. – b. 19. (Qosimov B. National Revival. – Tashkent: Maʼnaviyat, 2002. – p. 19.)
6. Исмоил Гаспринский ва Туркистон. – Тошкент: “Шарқ”, 2005. – б. 28 (Ismail Gasprinsky and Turkestan. – Tashkent: “Sharq”, 2005. – p. 28.)
7. Алимова Д, Рашидова Д. Махмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. - Тошкент: Академия, 1999. – б. 26- 27. (Alimova D., Rashidova D. Mahmudkhoja Behbudi and His Historical Thinking. – Tashkent: Akademiya, 1999. – pp. 26–27.)
8. Владислав Безменов, «Миллиард.Татар» Татары в Туркестане: «13 наборщиков-мусульман приехали в Бухару из Казани» <https://milliard.tatar/news/tatary-v-turkeстане-13-naborshnikov-musulman-priexali-v-buxaru-iz-kazani-3805> (Vladislav Bezmenov, “Milliard.Tatar”. Tatars in Turkestan: “13 Muslim Typesetters Came to Bukhara from Kazan” <https://milliard.tatar/news/tatary-v-turkeстане-13-naborshnikov-musulman-priexali-v-buxaru-iz-kazani-3805>)
9. Полвонов Н. // Формирование в Хорезме движения джадидов и его характерные особенности (часть II). <https://horazmiy.uz/oz/pages/view/447> (Polvonov N. // Formation of the Jadid Movement in Khorezm and Its Characteristic Features (Part II). <https://horazmiy.uz/oz/pages/view/447>)
10. Абдулла Расулов, Исоқбоев Алишер, Насретдинова Дилфуза // Татары в Туркестане: «После пятничной молитвы мусульмане устраивали митинги и собрания в поддержку новой власти», 2023 г.16 марта. (Abdulla Rasulov, Isokboyev Alisher, Nasretdinova Dilfuza // Tatars in Turkestan: “After Friday Prayers, Muslims Held Rallies and Meetings in Support of the New Government,” March 16, 2023.)
11. Расулов А., Исоқбоев А., Насретдинова Д. Туркистон ижтимоий-сиёсий, маданий ҳаётида татарлар: монография. – Тошкент: “TURON – IQBOL”, 2019. – 125 б. (Rasulov A., Isokboyev A., Nasretdinova D. Tatars in the Social-Political and Cultural Life of Turkestan: Monograph. – Tashkent: “TURON – IQBOL”, 2019. – p. 125.)

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 4

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000